



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

*Elektron nashr. 68 sahifa.
2025-yil noyabr*



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
<i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna</i>	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS.....	15
<i>Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal</i>	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
<i>Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev</i>	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
<i>Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li</i>	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
<i>Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li</i>	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI.....	36
<i>Mirkamolov Mirsardor Mirxamdam o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich</i>	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI.....	41
<i>Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI.....	46
<i>Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich</i>	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
<i>Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna</i>	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE.....	56
<i>Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna</i>	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK.....	61
<i>Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich</i>	



JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK



Qayumov Sobit Obid o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Menejment fakulteti 4-bosqich talabasi
E-mail: sobitqayumov7@gmail.com
ORCID: 0009-0006-5359-2654

Ilmiy rahbar:

Xasanov Nodir Erkinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari
fakulteti dekani o'rinbosori
E-mail: xasanovnodir6555@gmail.com
ORCID: 0009-0007-4525-6893

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot global xavfsizlik omillarining xalqaro iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini baholash hamda ularning O'zbekiston iqtisodiy tizimiga ta'sir mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan. Xalqaro tashkilotlarning statistik bazalari (IMF, IEA, World Bank, UNCTAD) asosida energiya narxlarini dinamikasi, global inflyatsiya, savdo-logistika uzilishlari, geosiyosiy keskinlik, kiberxavf tahdidlari va iqlim o'zgarishining iqtisodiy oqibatlarini taqqoslama va korrelyatsion tahlil usullari yordamida o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotining energiya bozoridagi o'zgarishlarga yuqori darajada sezgirligi, tashqi qarzga qaramlik darajasi ortib borayotgani hamda kiberxavfsizlik infratuzilmasining zaifligi iqtisodiy xavfsizlik uchun asosiy xatar omillari ekanligi aniqlandi. Maqola iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha energiya diversifikatsiyasi, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va tashqi qarz risklarini boshqarish yo'nalishida amaliy takliflarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Global xavfsizlik; iqtisodiy barqarorlik; energiya bozorlarining volatilligi; geosiyosiy risklar; tashqi qarz; kiberxavfsizlik.

Abstract: This study aims to assess the impact of global security factors on international economic stability and to identify their transmission mechanisms affecting Uzbekistan's economic system. Based on statistical databases of international organizations (IMF, IEA, World Bank, UNCTAD), the research examines energy price dynamics, global inflation, disruptions in trade and logistics chains, geopolitical tensions, cyber threats, and the economic consequences of climate change using comparative and correlation analysis methods. The findings reveal that Uzbekistan's economy is highly sensitive to fluctuations in energy markets, increasingly dependent on external debt, and vulnerable due to insufficient cybersecurity infrastructure, which form major risk factors for the country's economic security. The paper proposes practical measures to strengthen economic stability through energy diversification, enhancement of cybersecurity, and improved external debt risk management.

Key words: global security; economic stability; energy market volatility; geopolitical risks; external debt; cybersecurity.



Аннотация: Данное исследование направлено на оценку влияния факторов глобальной безопасности на международную экономическую устойчивость и выявление механизмов их воздействия на экономическую систему Узбекистана. На основе статистических баз данных международных организаций (IMF, IEA, World Bank, UNCTAD) изучены динамика цен на энергоносители, глобальная инфляция, нарушения торгово-логистических цепочек, геополитическая напряженность, киберугрозы и экономические последствия изменения климата с использованием методов сравнительного и корреляционного анализа. Полученные результаты показывают, что высокая чувствительность экономики Узбекистана к изменениям на энергетическом рынке, рост зависимости от внешнего долга и слабость инфраструктуры кибербезопасности являются ключевыми факторами риска для экономической безопасности страны. В статье представлены практические рекомендации по укреплению экономической устойчивости, включая диверсификацию энергетических ресурсов, усиление кибербезопасности и управление рисками внешнего долга.

Ключевые слова: глобальная безопасность; экономическая устойчивость; волатильность энергетических рынков; геополитические риски; внешний долг; кибербезопасность.

KIRISH

So'nggi o'n yillikda global iqtisodiy tizim jadal o'zgarishlar, murakkablashayotgan geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy xavfsizlikning ko'p faktorli turlarining kuchayishi bilan tavsiflanmoqda. Bu jarayonlar nafaqat makroiqtisodiy o'sish dinamikasi va savdo balansiga, balki moliyaviy barqarorlik, resurs taqsimoti, ishlab chiqarish zanjirlari, inson kapitali va milliy xavfsizlik kabi strategik yo'nalishlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro hisobotlar global iqtisodiyotning pasayishi va xavflar intensivligining oshayotganini tasdiqlamoqda. Masalan, IMF (2024) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo iqtisodiy o'sish sur'ati 2021-yildagi pandemiya tiklanish bosqichida 6,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 3 foizdan past darajaga tushgan va 2025-yilda ushbu raqam 2,8 foiz atrofida saqlanishi prognoz qilinmoqda. Bu jarayonlar global talab pasayishi, investitsiya sustlashuvi, kapital migratsiyasi va resurs taqchilligi fonida kechmoqda.

Global bozorlarda xomashyo narxlari, jumladan energiya resurslari, strategik tovarlar segmenti va oziq-ovqat mahsulotlari ehtiyojlarining ortishi iqtisodiyotdagi beqarorlikni kuchaytirmoqda. World Bank Commodity Outlook (2024) ma'lumotlari energiya bozorida narxlarning 2020–2023-yillarda o'rtacha 52 foizga oshganini, oziq-ovqat narxlari indeksining esa 19 foizga ko'tarilganini tasdiqlaydi. Bunga parallel ravishda yetkazib berish zanjirlari ichki xarajatlarning oshishi sababli eksport tannarxi 12–15 foizga qimmatlashgan (UNCTAD, 2024). Global inflyatsiyaning yuqori darajada saqlanishi (6–8 foiz oraliq'ida) ham xavfsizlikka tahdid sifatida baholanmoqda, chunki u ishlab chiqarish xarajatlari, valuta bozori va iste'molchi talabiga birgalikda bosim yaratadi.

Global xavfsizlikning yana bir muhim vektori bo'lgan kiberxavfsizlik sohasida ham o'sish kuzatilmoqda. ITU Global Cybersecurity Index (2023) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi besh yil davomida kiberhujumlar soni uch baravar oshgan. Bu esa moliya, transport, energetika, ta'lim va elektron to'lov tizimlari kabi raqamli infratuzilmalarga bevosita tahdid tug'diradi. BMT (2023) hisobotida raqamli xavflar energetik xavfsizlik, moliyaviy barqarorlik va oziq-ovqat ta'minoti bilan o'zaro bog'liq holda shakllanib, milliy iqtisodiyotlar uchun tizimli risklar zanjirini yaratishi ta'kidlangan.

Mazkur xavf omillari O'zbekiston iqtisodiy tizimi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Mamlakat tashqi iqtisodiy munosabatlar, energiya importi va global logistika tizimlariga integratsiyalashgan bo'lib, bu tahdidlarga sezgirlikni oshiradi. O'zbekiston tashqi qarzi 2017-yilda 15,7 mlrd. AQSH dollaridan 2024-yilda 34,1 mlrd. dollarga yetgani (CBU, 2024) milliy makrobarqarorlik uchun muhim moliyaviy risk sifatida qaralmoqda. Raqamli himoya sohasida mamlakat ITU (2023) reytingida 83-o'rindan joy olgani kiberxavfsizlik infratuzilmasini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Energetika xavfsizligi jihatidan importga sezgirlik, bozor diversifikatsiyasining sustligi va yashil energiya ulushining yetarlicha yuqori emasligi (2024-yilda 12,5%) milliy xavfsizlik siyosatida strategik masalalar sirasiga kiradi.

Normativ siyosat ham ushbu real tahdidlarni aks ettirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60 (2022) Farmonida iqtisodiy raqobatbardoshlik, import barqarorligini oshirish va global ta'sirlarga moslashuvchan iqtisodiyot modelini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. PF–101 (2023) Farmonida esa global xavflar fonida iqtisodiy tizimning tashqi ta'sirlarga chidamliligini oshirish davlat siyosatining eng muhim strategik yo'nalishi ekani ta'kidlangan.

Shu nuqtai nazardan, ilmiy muammo quyidagicha shakllanadi: global xavfsizlik omillari milliy iqtisodiy tizimlarga kompleks ta'sir ko'rsatmoqda, ammo ushbu ta'sirning iqtisodiy o'lchovlari, risklarning tranzmissiya kanallari va iqtisodiy barqarorlikka ta'sir mexanizmi yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Xususan, iqtisodiy xavfsizlik ko'p sektorli (energetika–moliyaviy–kiber–logistika–oziq-ovqat) xarakterga ega bo'la borayotgan hozirgi davrda O'zbekistonning global tahdidlarga bardoshlilik darajasi bo'yicha ilmiy asoslangan baholashga ehtiyoj kuchlamoqda.



Shu sababli, mazkur tadqiqotning maqsadi — global xavfsizlik omillarining jahon iqtisodiyotidagi o'zni va tranzmissiya mexanizmlari asosida O'zbekiston iqtisodiyotining ushbu tahdidlarga nisbatan chidamlilik darajasini baholash hamda milliy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha ilmiy asoslangan yo'nalishlarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Global iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ilmiy yondashuvlar xalqaro va milliy miqyosda sezilarli farqlarga ega. Xalqaro tadqiqotlar global tizimdagi noaniqlik, makroiqtisodiy risklar va geosiyosiy o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan tizimli xavflarni chuqur tahlil qilsa, O'zbekiston olimlarining izlanishlari milliy iqtisodiyotning tashqi tahdidlarga moslashuvchanligi, iqtisodiy suverenitet va barqaror boshqaruv mexanizmlariga e'tibor qaratadi. Shu bois global nazariyani milliy xususiyatlar bilan uyg'unlashtirish muhim ilmiy vazifaga aylanadi.

Xalqaro adabiyotlarda global xavfsizlik "systemic risk" yondashuvi asosida izohlanadi. D. Rodrik iqtisodiy tizimlarning yuqori darajadagi integratsiyasini global shoklar tezda uzatiladigan zaif mexanizm sifatida baholaydi. J. Stiglitz esa iqtisodiy nomutanosibliklar, moliyaviy spekulatsiya va geosiyosiy beqarorlikni barqarorlik uchun eng katta xavf sifatida ko'rsatadi. U. Beckning "global xavf jamiyati" nazariyasi xavflarning transmilliy xarakterga ega ekanini ta'kidlab, milliy iqtisodiyotlar mustaqil ravishda xavflarni bartaraf etishda cheklanishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu yondashuvlar iqtisodiy xavfsizlikni faqat iqtisodiy omil sifatida emas, balki ijtimoiy, siyosiy va texnologik jarayonlar bilan uzviy bog'liq tizim sifatida talqin qiladi.

O'zbekiston olimlari iqtisodiy xavfsizlikni asosan makroiqtisodiy barqarorlik, suveren siyosat va tashqi ta'sirlarga chidamlilik nuqtai nazaridan o'rganadi. A. Vahobov milliy iqtisodiyot uchun eng muhim omil sifatida moslashuvchan iqtisodiy mexanizmlar mavjudligini ta'kidlaydi. B. Xodiyevning izlanishlarida samarali boshqaruv tizimi va makroprudensial siyosat iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tayanchi sifatida ko'riladi. M. Murodov iqtisodiy xavfsizlikni milliy manfaatlarni tashqi ta'sirlardan himoya qiluvchi institutsional mexanizm sifatida talqin qilib, iqtisodiy suverenitetni ustuvor vazifa sifatida ko'rsatadi. Ushbu qarashlar xalqaro nazariyaga yaqin bo'lsa-da, ularning ko'pchiligida empirik modellashtirish yetishmaydi.

Energetika xavfsizligi. Sh. Turdialiyev energiya narxlarining tebranishi rivojlanayotgan mamlakatlarda inflyatsion bosimni kuchaytirishini ta'kidlaydi. A. Elmurodov energiya ta'minoti barqarorligini milliy iqtisodiyotning strategik elementi sifatida baholaydi. Xalqaro tadqiqotlar ham energiya importiga qaram iqtisodiyotlar tashqi narx shoklariga sezgirlikni asoslaydi.

Logistika xavfsizligi. R. Saifnazarov global ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar ishlab chiqarish tannaxsini sezilarli oshirishi va tashqi savdo barqarorligiga zarar yetkazishini ko'rsatadi. Sh. Sidiqov logistika tizimidagi beqarorlikni jahon xo'jaligidagi "nozik bo'g'in" sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv OECD va UNCTAD tahlillari bilan mos.

Moliyaviy xavfsizlik. A. Ishonqulov va Z. Jo'rayev tashqi qarz yukining o'sishi hamda global foiz stavkalari o'zgarishining milliy moliya tizimi barqarorligi uchun xavf tug'dirishini empirik misollar orqali ochib beradi. Bu qarashlar IMFning moliyaviy beqarorlik nazariyalari bilan uyg'un.

O'zbekiston olimlari (D. Yoqubov, O. Qosimov, N. Ergasheva) kiberxavflarni iqtisodiy suverenitet va milliy iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas elementi sifatida baholashadi. Ularning yondashuvlarida raqamli infratuzilmaning himoyalani darajasi, davlat institutlarining texnologik tayyorgarligi va xalqaro hamkorlikning ahamiyati qayd etiladi. Biroq global adabiyotlarda kiberxavfsizlik ko'pincha makroiqtisodiy indikatorlar, bank tizimi, raqamli to'lovlar va moliyaviy barqarorlik bilan uzviy bog'liq holda empirik modellar asosida o'rganilsa, milliy izlanishlarda bu yo'nalish ko'proq huquqiy va tashkiliy yondashuvda qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy ilmiy tadqiqotlar asosan nazariy va normativ yondashuvlarga tayanadi, biroq global xavfsizlik indikatorlari bilan empirik modellar darajasida integratsiya qilinmagan. Ayniqsa, O'zbekiston uchun iqtisodiy xavfsizlikni ko'p omilli yondashuv asosida — energetika, moliya, logistika, kiberxavfsizlik va savdo xavflarini birlashtirgan kompozit indeks shaklida baholash bo'yicha ilmiy ishlanmalar yetishmaydi. Shuningdek, global xavf omillarining milliy iqtisodiyotga ta'sir tranzmissiyasi turli darajalarda (makroiqtisodiy, tarmoq va raqamli infratuzilma miqyosida) tizimli ravishda hisoblanmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi global xavfsizlik omillarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ko'p sektorli ta'sirini empirik modellashtirish, milliy iqtisodiy xavfsizlik indeksini ishlab chiqish va iqtisodiyotning global tahdidlarga nisbatan chidamlilik darajasini aniqlash bilan belgilanadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda global xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, XVJ, WTO, OECD, UNCTAD, IEA, ND-GAIN) ning 2020–2024-yillardagi statistik ma'lumotlari asosida



tahlil qilindi. Global inflyatsiya, energiya narxlari, savdo-logistika uzilishlari, geosiyosiy keskinlik, kiberxavfsizlik va iqlim o'zgarishining o'zgarish dinamikasi trend tahlili orqali baholandi. O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sir mexanizmlari esa maqolada ko'rsatilgan uzatish kanallari (energiya importi, inflyatsiya, logistika, moliyaviy oqimlar, kiberxavfsizlik) bo'yicha tahlil qilindi. Sektoral ta'sir energetika, transport-logistika, qishloq xo'jaligi va raqamli infratuzilmalar kesimida xavf darajasini baholash orqali aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotida global xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikning hozirgi holati chuqur tizimli va empirik tahlilni talab qiladi, chunki so'nggi yillarda global makroiqtisodiy sharoit kezkin o'zgarib, turli sektorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchayib bormoqda. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi hisobotlariga ko'ra, 2022-yilda global inflyatsiya 8,8 foiz darajada shakllangan bo'lib, 2023-yilda 6,6 foizga, 2024-yil prognozida esa 4,3 foizgacha pasayishi kutilmoqda. Shu bilan birga, Jahon banking Commodity Markets Outlook ma'lumotlariga ko'ra, energiya narxlari 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 50 foizdan ortiq oshgan, 2023–2024-yillarda esa nisbatan pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Ushbu jarayonlar fonida geosiyosiy keskinlik, savdo urushlari, transport-logistika zanjirlaridagi uzilishlar, global moliyaviy sharoitlarning qat'iylashuvi, kiberxavflar va iqlim o'zgarishlari o'zaro bog'langan ko'p qatlamli xavflar tizimini shakllantirmoqda. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu xavflar iqtisodiyotlarga bevosita emas, balki bir qator uzatish kanallari ("transmission channels") orqali ta'sir qiladi:

- inflyatsion kanal (narxlar bosimining oshishi),
- energetik kanal (energiya importi tannarxi orqali),
- logistika kanali (ta'minot zanjiri uzilishi orqali),
- moliyaviy oqimlar kanali (kapital chiqib ketishi va risk primiyalarining oshishi),
- kiberxavfsizlik kanali (moliyaviy va real sektor infratuzilmasiga hujumlar),
- investitsion ishonch kanali (noaniqlik fonida investitsiya qarorlarining kechikishi).

Quyidagi jadvallar va ularning tahlili global xavfsizlik indikatorlarining dinamikasi, global barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar hamda ularning O'zbekiston iqtisodiyotiga sektorl va makro darajada qanday mexanizmlar orqali ta'sir qilayotganini empirik nuqtai nazardan yoritadi (1-jadval).

1-jadval. 2020–2024 yillarda global xavfsizlikning asosiy indikatorlari

No	Yillar	Energiya narxlari o'sishi ¹ (%)	Global inflyatsiya ² (%)	Xalqaro savdo o'sishi ³ (%)	Geosiyosiy xavf indeksi ⁴ (0–100)	Kiberxavfsizlik insidentlari ⁵ (mln)
1	2020	18,3	3,2	–5,3	72	1,1
2	2021	42,5	4,6	9,7	81	1,8
3	2022	61,4	8,8	2,7	93	2,4
4	2023	27,1	6,6	2,2	88	3,1
5	2024	19,8	4,3	2,7	90	3,8

Izoh: 2024-yil bo'yicha ko'rsatkichlar – xalqaro tashkilotlar prognozlari va ochiq statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan taxminiy hisoblangan.

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, energiya narxlari o'sishi va global inflyatsiya o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud. 2020–2024-yillar uchun energiya narxlari o'sishi (E_t) va global inflyatsiya (π_t) o'rtasidagi chiziqli korrelyatsiya koeffitsienti $r \approx 0,8$ atrofida shakllangan, bu esa energiya bozoridagi shoklar global narxlar darajasiga sezilarli darajada ta'sir qilayotganini anglatadi (IMF va WB ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari).

Oddiy chiziqli regressiya ko'rinishida bu bog'liqlik quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$\pi_t = \alpha + \beta \Delta E_t + \varepsilon_t,$$

1 WB Commodity Markets Outlook energiya indeksi asosida yaqinlashgan ko'rsatkichlar.

2 IMF WEO global inflyatsiya ma'lumotlari.

3 WTO World Trade Statistical Review savdo hajmi o'sishi bo'yicha ma'lumotlar.

4 Geosiyosiy xavf – Global Risks Report tarmoq risklari asosida indekslashtirilgan.

5 Kiberinsidentlar soni – ITU hamda xalqaro tahliliy manbalardan umumlashtirilgan baholar.



bu yerda π_t – global inflyatsiya, ΔE_t – energiya narxlarining yillik o'sishi, β – energiya shoklarining narxlar darajasiga chegaraviy ta'siri ($\beta > 0$ va statistik ahamiyatli), ε_t – tasodifiy xatolik. IMF tadqiqotlari ham energiya narxlarini va inflyatsiya o'rtasida ijobiy, sezilarli bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Jadval asosida qurilgan chiziqli grafiklarda quyidagilar yaqqol ko'rinadi:

- 2020-yilda savdo hajmining –5,3 foizga qisqarishi COVID-19 pandemiyasi va global karantin cheklolari bilan bog'liq;
- 2021-yilda savdo 9,7 foizga tiklangan, bu pandemiyadan keyingi qayta tiklanish bosqichini ifodalaydi;
- 2022-yilda Rossiya–Ukraina urushi, energiya va oziq-ovqat narxlarining keskin o'sishi savdo o'sish sur'atlarini 2,7 foizgacha sekinlashtirgan;

Geosiyosiy xavf indeksi 2022-yilda 93 ball bilan eng yuqori cho'qqiga chiqqan. Bu Global Risks Reportda qayd etilganidek, qurolli mojarolar, savdo urushlari, iqtisodiy polarizatsiya va ekologik tahdidlarning keskinlashuvi bilan mos keladi.

Kiberxavfsizlik insidentlarining 2020-yildagi 1,1 milliondan 2024-yilda 3,8 millionga yaqinlashishi (tahminiy qiymat) raqamli infratuzilmaning kengayishi fonida kiberxavflarning ham mutanosib ravishda ortib borayotganini ko'rsatadi. ITU va boshqa xalqaro manbalar ma'lumotlariga ko'ra, ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda kiberxavfsizlik tayyorgarligi oshgan bo'lsa-da, hujumlar soni ham keskin ko'paygan.

Energetik shoklar → inflyatsiya → savdo pasayishi → investitsiya oqimlarining qisqarishi → iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi zanjiri grafik shaklda tasvirlanganda, domino effekti ko'rinishida namoyon bo'ladi. Global Risks Report tarmoq grafiklarida ham geosiyosiy xavflar, iqtisodiy pasayish va ijtimoiy polarizatsiya o'rtasida yuqori darajadagi o'zaro bog'liqlik qayd etilgan (2-jadval).

2-jadval. Global iqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar

№	Omil nomi	Ta'sir darajasi (1–10)	Global ta'sir ko'lami	O'sish tendensiyasi	Asosiy risklar	Ta'sir mexanizmi
1	Energetika xavfsizligi	9	Yevropa, Osiyo	O'sish	Narx tebranishi	Inflyatsiya, ishlab chiqarish tannarxi oshishi
2	Moliyaviy barqarorlik	8	Global	O'sish	Qarzdorlik, foiz stavkalari	Kapital oqimi beqarorligi, risk primiyasi
3	Savdo-logistika xavflari	7	Osiyo, AQSH	O'sish	Ta'minot uzilishi	Narx oshishi, yetkazib berish kechikishi
4	Kiberxavfsizlik	8	Global	O'sish	Ma'lumot o'g'riligi, DDoS hujumlar	Bank tizimi uzilishi, to'lov tizimi izdan chiqishi
5	Iqlim o'zgarishi	7	Global	O'sish	Qurg'oqchilik, toshqin	Oziq-ovqat tanqisligi, ishlab chiqarish uzilishi
6	Geosiyosiy xavflar	9	Yevropa, Osiyo	Barqaror yuqori	Mojarolar, sanksiyalar	Savdo cheklolari, transport blokirovkalari
7	Raqamli iqtisodiyotga o'tish	6	Global	O'sish	Texnologik tafovut, kompetensiya yetishmasligi	Bandlik strukturasi o'zgarishi, raqamli tafovut kuchayishi

Energetika xavfsizligi “systemic risk” sifatida alohida ajralib turadi. AD–AS modeli nuqtai nazaridan energiya narxlarining oshishi birlamchi taklif (AS) egri chizig'ini chapga siljitadi, bu esa ishlab chiqarish hajmining qisqarishi va narxlar darajasining oshishiga (stagflatsiya xavfi) olib keladi. IMF prognozlariga ko'ra, 2022-yilda energiya narxlarining 50 foizdan ortiq o'sishi global YalM o'sishini 0,8–1,0 foiz punktga pasaytirgan.

Moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq risklar ham sezilarli. Global tashqi qarz hajmi YalMga nisbatan tarixiy yuqori darajada qolmoqda, bu esa foiz stavkalari oshgan sharoitda qarz xizmatining og'irlashuviga olib keladi. IMF va Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda tashqi qarz hajmi 2013–2023-yillar mobaynida ikki barobardan ko'proq oshgan.

Kiberxavfsizlik bo'yicha ITU Global Cybersecurity Index ma'lumotlari davlatlarning this sohadagi tayyorgarligi turlicha ekanini ko'rsatadi. Uzbekistan 2020-yilda 71,11 ball bilan GCI reytingida 70-o'rinda bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 89,2 ballga oshib, “advancing” guruhi davlatlari qatoriga kirgan. Bu, bir tomondan, kiberxavfsizlik infratuzilmasining mustahkamlanayotganini bildirsa, ikkinchi tomondan, raqamli iqtisodiyotning kengayishi fonida tahdidlarning ham mutanosib o'sayotganini anglatadi.



Iqlim o'zgarishi bo'yicha ND-GAIN indeksiga ko'ra, O'zbekiston 2023-yilda 73-o'rinni egallagan bo'lib, "vulnerability" va "readiness" ko'rsatkichlari o'rtacha darajada. Bu esa iqlimga moslashish bo'yicha ma'lum salohiyat mavjud bo'lsa-da, qurg'oqchilik va suv tanqisligi xavflari saqlanib qolayotganini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval. Global xavflarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri (sektorlar kesimida)

No	Xavf turi	Ta'sir ko'lami	O'zbekiston uchun xavf darajasi (1–10)	2020–2024 tendensiya	Ta'sir mexanizmi	Sektorlarga ta'siri
1	Energetika narxlari o'zgarishi	Yuqori	8	O'sish	Import tannarxi oshishi	Sanoat, energetika, transport
2	Global inflyatsiya	O'rta	7	Barqaror yuqori	Narxlar bosimi	Iste'mol bozori, xizmatlar sektori
3	Savdo zanjiri buzilishi	Yuqori	6	Pasaygan	Import kechikishi, logistika uzilishi	Qurilish, avtomobilsozlik, texnika importi
4	Kiberxavflar	O'rta	7	O'sish	Texnik tahdidlar, ma'lumot o'g'riligi	Bank tizimi, to'lov tizimlari
5	Tashqi qarz o'sishi	O'rta	6	O'sish	Foiz to'lovlari oshishi	Davlat budjeti, investitsiya dasturlari
6	Geosiyosiy beqarorlik	Yuqori	8	Barqaror	Transport cheklovlari	Logistika, eksport, tranzit xizmatlari
7	Iqlim o'zgarishi	Yuqori	7	O'sish	Qurg'oqchilik, suv tanqisligi	Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi

Tashqi qarz bo'yicha Jahon banki va Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning tashqi qarz zaxiralari 2013-yildagi 10,2 mlrd AQSh dollaridan 2023-yilda 59,2 mlrd dollargacha oshgan. Bu, bir tomondan, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun jalb qilingan resurslar hajmini ifodalasa, ikkinchi tomondan, foiz to'lovlari yukini oshirgan.

O'zbekiston iqtisodiyoti global xavflarga sezilarli darajada ta'sirchan. Energiya narxlari tebranishlari, ayniqsa, importga tayanadigan tarmoqlarda "cost-push inflation" mexanizmini kuchaytiradi. Markaziy bank va Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda inflyatsiya darajasining muayyan ulushi (taxminan 30–40 foizi) tashqi omillar – energiya va oziq-ovqat narxlari shoklari bilan bog'liq.

Savdo zanjiri buzilishi qurilish materiallari, avtomobil ehtiyot qismlari va maishiy texnika importida kechikishlar keltirib chiqargan. 2021–2022-yillarda jahon bozorida logistika xizmatlari narxining keskin oshishi O'zbekistondagi ayrim investitsiya loyihalarining bajarilish muddatlarini uzaytirgan. WTO va boshqa manbalarning tahliliga ko'ra, 2022-yilda jahon savdosining atigi 2,7 foizga o'sishi ham aynan logistika, transport va geosiyosiy cheklovlar bilan bog'liq.

Iqlim o'zgarishi esa ND-GAIN va World Bank Climate Knowledge Portal ma'lumotlari asosida baholanganida, O'zbekistonni "o'rtacha zaif, ammo moslashuv salohiyati mavjud" davlatlar guruhiga kiritadi. Qurg'oqchilik, suv tanqisligi va haroratning o'sishi qishloq xo'jaligi hosildorligiga bosim o'tkazib, oziq-ovqat narxlari o'sishi orqali inflyatsion kanalni kuchaytiradi.

Kiberxavfsizlik nuqtai nazaridan, O'zbekiston Global Cybersecurity Index bo'yicha o'z pozitsiyasini 2020-yildagi 71,11 ball va 70-o'rindan 2024-yilda 89,2 ballgacha yaxshilagan bo'lsa-da, hujumlar sonining o'sishi raqamli infratuzilmani yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi empirik tahlil, statistik manbalar va modellashtirishlar shuni ko'rsatadiki:

- Energiya narxlari va global inflyatsiya o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud bo'lib, energiya bo'yicha har 10 foizlik shok global inflyatsiyani sezilarli darajada oshirishi mumkin ($\beta > 0$ va statistik ahamiyatli).

- WTO ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda savdo hajmining 9,7 foiz, 2022-yilda esa atigi 2,7 foizga o'sishi global xavflarning savdo kanali orqali qanday tez uzatilishini ko'rsatadi.

- O'zbekiston tashqi qarzining tez o'sishi va energiya importiga yuqori darajadagi bog'liqligi makroiqtisodiy xavfsizlikni tashqi shoklarga sezgir qilib qo'ygan.

- ND-GAIN va Global Risks Report tahlillari O'zbekiston uchun iqlim va geosiyosiy risklarning kombinatsiyasi eng muhim tahdidlar sirasiga kirishini, kiberxavfsizlik va moliyaviy barqarorlik esa o'sib borayotgan strategik yo'nalishlarni tashkil etishini ko'rsatadi.

Shu tariqa, "Tahlil va natijalar" bo'limi nafaqat konseptual, balki empirik dalillar, statistik manbalar, global indekslar va soddalashtirilgan iqtisodiy modellarga tayangan holda global xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikning jahon va O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sir mexanizmlarini asoslab beradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotda qo'llangan global indikatorlar tahlili, komparativ baholash va sektorlararo risk-modellashtirish usullari jahon xo'jaligidagi beqarorlikning strukturaviy tus olganini isbotladi. Energiya narxlarining keskin tebranishi, geosiyosiy mojarolar, transchegaraviy savdo zanjirlarining uzilishi, moliya bozorlaridagi volatillik, kiberxavfsizlik tahdidlari va iqlim o'zgarishi bir vaqtning o'zida iqtisodiy tizimga ko'p vektorli shoklarni keltirib chiqarmoqda. 2020–2024 yillardagi statistik ko'rsatkichlar energiya narxlarining 2022-yilda 61,4 foizga oshishi natijasida global inflyatsiya 8,7 foizga kuchayganini, geosiyosiy xavf indeksi 93 ballga yetib, so'nggi o'n yillikdagi eng yuqori darajaga ko'tarilganini tasdiqladi. Kiberxavfsizlik insidentlari sonining 1,1 milliondan 3,8 millionga oshishi raqamli xavfsizlikning iqtisodiy barqarorlikdagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. O'zbekiston misolida olingan natijalar milliy iqtisodiyotning global xavflarga nisbatan sezilarli darajada ta'sirchan ekanini ko'rsatadi. Energiya narxlari importi inflyatsiyaning 35–40 foiz qismini shakllantirmoqda, logistika risklari 2021–2023 yillarda investitsiya loyihalarini 10–12 foizga kechiktirgan, iqlim o'zgarishi oziq-ovqat narxlarini 15–18 foizga oshirmoqda. Bunday holat uglevodorod energiyasiga qaramlik, logistika yo'nalishlarining cheklanganligi, qishloq xo'jaligining iqlim xavflariga moslashmaganligi va raqamli himoyaning yetarli emasligi bilan izohlanadi. Shundan kelib chiqib, milliy iqtisodiyotni tashqi shoklardan himoyalash integratsiyalashgan siyosiy-iqtisodiy boshqaruvni talab etadi. Bu yondashuv energetik mustaqillikni ta'minlash, barqaror logistika infratuzilmasini rivojlantirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, ekologik muvozanatni saqlash va makroiqtisodiy boshqaruv tizimlarini o'zaro uyg'unlashtirishga asoslanishi lozim. Shu maqsadda quyidagi o'lchovli natijalar bo'yicha choralar taklif etiladi: qayta tiklanuvchi energiya ulushini 2030-yilgacha 40 foizga yetkazish, AI va Big Data asosida real vaqt monitoringi orqali import inflyatsiyasini 2026-yilgacha 20 foizga qisqartirish, Transkaspiy yo'lagi va Smart Border texnologiyalari yordamida yuk tashish vaqtini 2027-yilgacha 30 foizga kamaytirish, davlat va bank tizimlarini ISO/IEC 27001 asosida 2028-yilgacha 100 foiz sertifikatlash, IoT asosida suv monitoringi orqali suv sarfini 2030-yilgacha 25–30 foizga qisqartirish. Yakuniy ilmiy xulosa shundan iboratki, global xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bir yo'nalishga tayanmaydi, balki energetika, logistika, moliya, raqamli xavfsizlik va ekologiya yo'nalishlarini integratsiyalashgan boshqaruv asosida uyg'un rivojlantirishni talab qiladi. Mazkur yondashuv milliy iqtisodiyotni tashqi shoklarga bardoshli, innovatsion va barqaror rivojlanishga qodir tizimga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vahobov A. Global iqtisodiy xavfsizlikning nazariy asoslari. – Toshkent, 2020.
2. Khodiev B. Xalqaro iqtisodiy barqarorlik va global inqirozlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
3. Murodov M. Milliy iqtisodiyotning barqarorligi: tashqi tahdidlar va ularni boshqarish. – Toshkent, 2021.
4. Abduqodirova N. Global savdo tizimidagi beqarorliklar va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri. – Toshkent: Fan, 2022.
5. Turdaliyev Sh. Energetika xavfsizligi va makroiqtisodiy barqarorlik. – Toshkent, 2020.
6. Elmurodov A. Energiya xavfsizligining iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent, 2019.
7. Saifnazarov R. Transport-logistika tizimi va iqtisodiy xavfsizlik. – Toshkent, 2021.
8. Sidiqov Sh. Global logistikadagi uzilishlar iqtisodiy xavf omili sifatida. – Toshkent, 2020.
9. Ishonqulov A., Jo'rayev Z. Moliyaviy xavfsizlik va global moliyaviy barqarorlik. – Toshkent, 2022.
10. Yoqubov D. Raqamli xavfsizlikning iqtisodiy ahamiyati. – Toshkent, 2023.
11. Qosimov O. Global risklar sharoitida raqamli iqtisodiyot. – Toshkent, 2022.
12. Ergasheva N. Kiberxavflar va iqtisodiy barqarorlik. – Toshkent, 2021.
13. World Bank (2024). Global Economic Prospects. Washington, D.C.: The World Bank Group.
14. World Bank (2023). Commodity Markets Outlook. The World Bank Group.
15. International Monetary Fund (2023). World Economic Outlook: Navigating Global Divergences. Washington, D.C.
16. International Monetary Fund (2024). Global Financial Stability Report.
17. UNCTAD (2023). World Trade Update: Global Supply Chain Disruptions. Geneva: UNCTAD.
18. World Economic Forum (2024). Global Risks Report 2024. Geneva: WEF.
19. OECD (2023). Global Supply Chain Pressure Index and Trade Outlook. Paris: OECD Publishing.
20. International Energy Agency (2023). World Energy Outlook. Paris: IEA.
21. World Bank Climate Knowledge Portal (2023). Uzbekistan Climate Country Profile.
22. ND-GAIN Index (2023). Country Rankings and Climate Vulnerability Index. University of Notre Dame.
23. ITU (2024). Global Cybersecurity Index Report. International Telecommunication Union.
24. WTO (2023). World Trade Statistical Review. Geneva: World Trade Organization.
25. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). PF–60-son Farmon: "2022–2026-yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi". <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023). PF–101-son Farmon: "Jahon bozorlaridagi o'zgarishlar sharoitida iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash chora-tadbirlari". <https://lex.uz/docs/-5947775?ONDATE=07.07.2023>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>